SLOMDA OILA TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Tavakkaljonova Ruqiya
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20095408

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom dinida oila tushunchasi, uning shakllanish asoslari hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, oilaning inson tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy kamolot va jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni Qur’on va hadislar asosida tahlil qilingan. Islom ta’limotida oilaviy munosabatlar, er-xotin va farzandlar huquqlari hamda oilaning jamiyatdagi muhim vazifalari haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: Oila, islom, nikoh, tarbiya, ma’naviyat, jamiyat, Qur’on, hadis, oilaviy qadriyatlar, axloq.

Аннотация: В данной статье раскрывается понятие семьи в исламе, основы её формирования и социальное значение в жизни общества. Также на основе Корана и хадисов анализируется роль семьи в воспитании личности, духовно-нравственном развитии и обеспечении стабильности общества. Рассматриваются семейные отношения в исламском учении, права супругов и детей, а также важные функции семьи в обществе.
Ключевые слова: Семья, ислам, брак, воспитание, духовность, общество, Коран, хадисы, семейные ценности, нравственность.

Abstract: This article discusses the concept of family in Islam, the foundations of its formation, and its social significance in society. It also analyzes the role of the family in personal upbringing, spiritual and moral development, and ensuring social stability based on the Qur'an and Hadiths. The study examines family relations in Islamic teachings, the rights of spouses and children, and the important functions of the family in society.
Keywords: Family, Islam, marriage, upbringing, spirituality, society, Qur’an, Hadith, family values, morality.

Islom dinida oila jamiyatning eng muhim va asosiy bo‘g‘ini sifatida e’tirof etiladi. Oila insonning nafaqat biologik, balki ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy kamolotini ta’minlaydigan muqaddas maskan hisoblanadi. Islom ta’limotiga ko‘ra, oilaning mustahkamligi jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biridir. Shu bois Qur’oni karim va hadisi shariflarda oila qurish, uni saqlash, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi hamda qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Islomda oila faqatgina ikki insonning nikoh asosidagi birlashuvi emas, balki insoniyat naslini davom ettirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash va jamiyatda axloqiy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida talqin etiladi. Oila orqali insonda mehr-oqibat, mas’uliyat, sabr-toqat, o‘zaro hurmat va sadoqat kabi fazilatlar shakllanadi. Aynan shu jihatlar oilani jamiyat taraqqiyotining poydevoriga aylantiradi.

Bugungi globallashuv jarayonida oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi, ajrimlar sonining ortishi, yoshlar tarbiyasidagi muammolar kabi masalalar jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, Islom dinining oila haqidagi qarashlarini ilmiy asosda o‘rganish, oilaning ijtimoiy ahamiyatini yoritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Islomda oilaga berilgan yuksak maqom va undagi huquqiy-axloqiy me’yorlar sog‘lom jamiyatni shakllantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

“Oila” so‘zini avval lug‘at jihatidan o‘rganadigan bo‘lsak, u arab tilidagi “avlun”, “aylatun” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ta’minlash”, “boqish”, “ayolmand” kabi ma’nolarni anglatadi. Istilohda esa “Er-xotin, ular bilan birga yashovchi kishilar majmui, xonadon”, “Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko‘p kishilar, xalqlar, mamlakatlar” ma’nolarida ishlatiladi[1].

O‘zi yaratgan borliqda O‘zi yaratgan inson qanday yashasa saodatli bo‘lishini yaxshi bilgan Alloh taolo erkak va ayollarning nikoh orqali oila qurib yashashlarini iroda qilgan. Alloh taolo Qur’oni Karim oyatlarida inson zotining juft – erkak va ayol qilib yaratilishining hikmatlarini bayon qilib, “Nahl” surasida shunday marhamat qilgan: “Alloh sizlarga o‘zlaringizdan juftlar qildi va sizlarga juftlaringizdan bolalar va nabiralar qildi hamda sizlarni pok narsalardan rizqlantirdi” (72-oyat)[2]. Demak, insonlarni Alloh taolo er-xotin bo‘lib, juft bo‘lib yashaydigan qildi, ularga farzand berib, jigargo‘shasining farzandini ham ko‘rish, nabirali bo‘lish baxtini ato etdi. Insonlar o‘zaro oila qurib yashashlari va o‘zlaridan zurriyotlar qoldirishlari Yaratgan Zotning irodasi ekan. Shuning uchun ham oila muqaddasdir.

Ja’far bin Muhammad otasidan rivoyat qilgan hadisi sharifda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: “Albatta, Alloh azza va jalla meni nikohdan chiqardi, zinodan chiqarmadi” (Bayhaqiy rivoyati).

Oila – nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi. Bu borada Abdurauf Fitrat: “Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”[3], deb ta’kidlagan.

Islom dinida oila qurishga erkak va ayol birdek targ‘ib qilingan. Oila qurmasdan, tarkidunyochilik yo‘lini tutish qoralanib, buning aksi bo‘lgan nikoh ibodat darajasiga ko‘tarilgan. Payg‘ambarimiz (alayhissalom) nikohlanish faqat o‘zlarining sunnati emas, balki o‘tgan barcha payg‘ambarlarning ham sunnati ekanini aytganlar. Payg‘ambarimizdan (alayhissalom) bu borada rivoyat qilingan hadislarning birida: “Ey yigitlar, sizlardan qay biringiz oila qurishga qurbi yetsa, uylansin. Uylanish nomahramlarga ko‘z tashlashdan, zinokorlikdan asraydi. Qurbi yetmagan kishi ro‘za tutsin, toki unga to‘siq bo‘lsin», deyilgan (Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy). Darhaqiqat, Alloh insonni, u erkak yoki ayol bo‘lsin, nafsiy rag‘bat bilan yaratgan. Ayni paytda ushbu rag‘batni halol-pok yo‘l bilan qondirishni buyurib, nikohni joriy qilgan. Albatta, har qanday inson bolog‘at yoshiga yetgach, undagi yashirin nafsoniy rag‘bat avj ola boshlaydi. Allohdan qo‘rqib, Payg‘ambarimizning (alayhissalom) ko‘rsatmalariga amal qilaman degan banda, agar moddiy va boshqa imkoniyatlari mavjud bo‘lsa, nikohlanish orqali buning oldini oladi. Nafs rag‘batini haromga yurib qondirish yo‘li bo‘lgan zinodan o‘zini saqlaydi. Boshqa bir hadisda esa: «To‘rtta yaxshi ish bor, ular payg‘ambarlar sunnatidan sanaladi:

[1] https://sammuslim.uz/oz/articles/oila-muqaddas?print=on.

[2] Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. /Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hay’ati: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; mas’ul muharrir: M.Ahmadjonov. –T.: TIU, 2018. – B. 163.

[3] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 38.

hayo, xushbo‘ylik, misvok tutish va uylanishdir”, deb marhamat qilinadi (Imom Termiziy rivoyati). Payg‘ambarimizdan (alayhissalom) yana shunday hadis bor: “Kim uylangan bo‘lsa, dinining yarmini mukammal qilibdi, qolgan yarmida Allohga taqvo qilaversin” (Tabaroniy, Bayhaqiy, Hokim rivoyati).

Islom ta’limotiga ko‘ra, oila Yaratganning roziligini topish, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) axloqlari, islomiy odob bilan ziynatlanish va pok yo‘l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikohni insoniy aloqalarning eng muhimi sifatida yuksak qadrlaydi. Zero, oila katta jamiyatning kichik bir bo‘lagi hisoblanadi. Jamiyat yomonlik va buzg‘unchilikning barcha turlaridan xoli tinch va obod bo‘lishi, avvalo, ushbu kichik jamiyatning tinchligiga bog‘liq. Oila tinchlik-xotirjamligi va saodatini ta’minlash oiladagi har bir shaxsning o‘z mas’uliyatini his qilishi va bajarishi bilan barqaror bo‘ladi. Bunday mas’uliyatni esa, er va xotin o‘rtasini bog‘lab turuvchi nikohgina joriy qilishi va mustahkamlashi mumkin. Payg‘ambar (s.a.v.) bir hadislarida: “Nikoh mening sunnatimdir, kim sunnatimdan voz kechsa, u mendan emas (ya’ni, ummatimdan emas)”, deganlar. Demak, nikoh asosida turmush qurish Alloh taoloning buyrug‘i, Payg‘ambarimizning (s.a.v.) sunnatlari ekan, musulmon kishi oila qurishni paysalga solmay, uni shar’iy nikoh asosida amalga oshirishi lozim. Nikoh tufayli inson o‘z nasl-nasabining pokligini saqlaydi, iffatini asraydi, buzuqlik, zino singari harom ishlardan tiyiladi[4].

Muhammad (s.a.v)dan yana shunday hadis bor: “Kim uylangan bo‘lsa, dinining yarmini mukammal qilibdi, qolgan yarmida Allohga taqvo qilaversin” (Tabaroniy, Bayhaqiy, Hokim rivoyati). Islom ta’limotiga ko‘ra, oila Yaratganning roziligini topish, Payg‘ambarimiz (alayhissalom) axloqlari, islomiy odob bilan ziynatlanish va pok yo‘l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikohni insoniy aloqalarning eng muhimi sifatida yuksak qadrlaydi.

Oila tinchlik-xotirjamligi va saodatini ta’minlash oiladagi har bir shaxsning o‘z mas’uliyatini his qilishi va bajarishi bilan barqaror bo‘ladi. Bunday mas’uliyatni esa, er va xotin o‘rtasini bog‘lab turuvchi nikohgina joriy qilishi va mustahkamlashi mumkin.

Nikoh tufayli inson o‘z nasl-nasabining pokligini saqlaydi, iffatini asraydi, buzuqlik, zino singari harom ishlardan tiyiladi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish esa ushbu katta dasturiy masalaning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu muammolarni yechish samaradorligi ma’lum darajada o‘tmishdagi ilg‘or pedagogik g‘oyalardan qay darajada mohirona foydalanilayotganligiga bog‘liq. Tarbiyaga ta’lim to‘g‘risidagi qonunda shunday ta’rif beriladi: “Tarbiya aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”.

Tarbiya alohida bo‘lgan jarayon emas, u ta’lim, rivojlanish bilan bog‘liqdir, chunki ularning barchasi ham insonning shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan. Biz shunday yuksak madaniyatli, ma’naviyatli xalq vakillari ekanimizdan faxrlansak bo‘ladi. Bizning xalqimiz o‘zining axloqiy fazilatlari bilan mashhur. Oilada farzand tarbiyalayotgan ota-onalarimiz ularning odob-axloqiga, insonlar bilan muloqotda o‘zini tutishiga katta e’tibor beradi. Oila eng qadimiz ijtimoiy institutdir.

Alloh taolo butun mavjudotlarni o‘z qudrati bilan yaratdi. Odam deb atalmish inson va ba’zi maxluqotlarni oila shaklida hayot kechirishini iroda qildi. Va unga dunyo-yu oxirat saodatiga erishish uchun lozim bo‘ladigan ko‘rsatmalarni berdi. Odamzotning yolg‘izlikda emas, oila

[4] Usmonxon Alimov. "Oilada farzand tarbiyasi" . – Toshkent: Movarounnahr, 2011. – B. 42. https://muslim.uz/uz/e/post/35758-islomda-oilaning-o-rni.

shaklida hayot kechirib,bir-biridan taskin topib bormog‘ini , bunga inson tabiati mos ekanligini Alloh taolo o‘z kalomida ham aytib o‘tadi:

“Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar taskin topishingiz uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordi”[5]. Oila insonning dunyoviy saodatini ta’minlovchi qo‘rg‘ondir. Unda doimo tinchlik va totuvlik davom etishi uchun er va xotin o‘zlarining vazifa va burchlarini to‘liq ado etib borishlari lozim[6].

Oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Shunga ko‘ra hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma’nan va axloqan tarbiya topadi.

Oila – har bir jamiyatning boshlang‘ich tayanchi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, tinch va mustahkam bo‘ladi.Inson shaxsini shakllantirishda oila, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o‘taydi, ya’ni oilada odamlarning bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlariga ham, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatlariga asos solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta’kidlangan quyidagi so‘zlar nihoyatda ramziy va teran ma’noga ega: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”[7].

Hukumatimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy islohiy chora-tadbirlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iboratdir.

O‘zbekistan Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1997 yil “Inson manfaatlari yili”, 1998 yil “Oila yili”, 1999 yil“Ayollar yili”, 2000 yil “Sog‘lom avlod yili”, 2001-yil“Onalar va bolalar yili”, 2002-yil “Qariyalarni qadrlash yili”, 2003-yil “Obod mahalla yili”, 2004-yil “Mehr va muruvvat yili ”, 2012-yil “Mustahkam oila yili”, 2013-yil “Obod turmush yili ” deb e’lon qilindi. Mazkur tashabbuslarning o‘ziga xos ramziy ma’nosi va sabablari bor, albatta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarinig hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi ma’ruzasida ma’naviy tarbiya to‘g‘risida shunday degan edilar: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonnni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga asoslanamiz”[8].

Yosh avlod tarbiyasida oila madaniyatini shakllantirishning ahamiyati beqiyosdir. Oila – shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida birinchi va eng muhim muhit bo‘lib, unda farzandlar axloqiy qadriyatlarni, odob-axloq qoidalarini, mehr-muhabbat va hurmatni o‘rganadi. Oilaviy madaniyatning yuqori darajada shakllanganligi farzandlarda o‘zini boshqarish, muomala qilish, jamiyatga moslashish va mas’uliyatli shaxs bo‘lib yetishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

---

[5] Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. Rum surasi 21-oyat.

[6] Hoji Abdurazzoq Yunus. Ehtirom. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. 42 – B.

[7] O’zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent : O’zbekiston, 2023. – B. 41.

[8] Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".Toshkent, "0'zbekiston"-2017.

Islom dinida oila jamiyatning eng muhim va muqaddas ijtimoiy instituti sifatida qaraladi. Oila inson hayotining tabiiy ehtiyoji bo‘lishi bilan birga, uning ma’naviy kamoloti, axloqiy tarbiyasi va ijtimoiy shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Islom ta’limotida oilaning mustahkamligi jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotining asosi sifatida baholanadi. Shu sababli Qur’oni karim va hadislarda oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar, er-xotin huquq va majburiyatlari, farzand tarbiyasi hamda qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashga oid ko‘plab ko‘rsatmalar berilgan.

Islomda oilaning ahamiyati shundaki, u insonning shaxs sifatida shakllanishida birinchi tarbiya maskani vazifasini bajaradi. Farzandning dunyoqarashi, odob-axloqi, jamiyatga munosabati aynan oilada shakllanadi. Agar oilada sog‘lom ma’naviy muhit mavjud bo‘lsa, jamiyatda ham tinchlik, totuvlik va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi. Aksincha, oilaviy munosabatlarning zaiflashuvi ijtimoiy muammolar, axloqiy inqiroz va tarbiyaviy kamchiliklarga sabab bo‘ladi. Demak, Islomda oilani mustahkamlashga qaratilgan ko‘rsatmalar nafaqat shaxsiy hayot, balki butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Shuningdek, Islom oilani mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat va mas’uliyatga asoslangan birlik sifatida talqin qiladi. Er va xotin o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, farzandlarga bo‘lgan e’tibor, qarindosh-urug‘lar bilan aloqalarni saqlash kabi qadriyatlar oilaning barqarorligini ta’minlaydi. Bu qadriyatlar jamiyatda insonparvarlik, birdamlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Shu bois Islom oilaga nafaqat diniy, balki ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida ham yondashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axloq-odob haqidagi hadislar. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
2. Sh. Abdullayev, N. Mirzaxolov. Ma’ruzalar matni. 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli buyrug‘i bilan ro’yxati tasdiqlangan.
3. M. Nurmatova. Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent. 2021.
4. N. Yusupova. Fiqh I. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
5. X. Boboyev, X. Odilqoriyevlarning umumiy tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi. Mualliflar jamoasi. – Toshken: “Toshpoligrafkombinat”, 2000.
6. S.Mahkamov. Islom dini va oila tarbiyasi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2000.
7. J. Toshqulov., N. Yusupova. Islomda oila huquqi. O’quv qo’llanma. –Toshkent. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015.